

DEZADAPTATSIYA VA UNING O'SMIRLAR XALQIGA NAMOYON BO'LISHI

Rasulova Mohichehraxon Umidjonovna

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

21.130-guruh 4-kurs talabasi

E.mail: muhammadalievamohichehra@gmail.com

Tel: +99899.692.44.37

Annotatsiya

Mazkur maqolada dezadaptatsiya tushunchasi, uning sabablari va o'smirlar xulq-atvorida qanday shakllanishi, ta'siri hamda bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, dezadaptatsiyaning oldini olishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: deadaptatsiya, o'smirlik, xulq-atvor, ijtimoiy muhit, psixologik muvozanat, moslashuv.

Kirish

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining ortishi o'smirlar ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik — inson hayotidagi eng murakkab, psixologik o'zgarishlarga boy davr bo'lib, bu davrda shaxsda mustaqillik, o'z "men"ini anglash, o'zini jamiyatda tutishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Afsuski, bu davrda aksariyat o'smirlar turli ichki va tashqi omillar ta'sirida dezadaptatsiyaga uchrashi mumkin.

Asosiy qism

Dezadaptatsiya tushunchasi

Dezadaptatsiya — bu shaxsning ijtimoiy muhitga, o'quv jarayoniga yoki oilaviy sharoitga moslasha olmasligi natijasida yuzaga keladigan ruhiy-emosional va xulq-atvordagi buzilish holatidir. Bu holat o'z vaqtida aniqlanmasa, keyinchalik yanada chuqurlashib, salbiy oqibatlariga olib keladi.

Dezadaptatsiyaning asosiy sabablari:

1. Oilaviy nizolar, ajrimlar, mehr yetishmasligi;
2. Maktab muhitida noqulayliklar, o'qituvchi va tengdoshlar bilan muammo;
3. Shaxsning o'ziga ishonchsizligi, ichki ziddiyatlar;
4. Ijtimoiy tengsizlik, moddiy yetishmovchilik;
5. Axborot vositalarining salbiy ta'siri.

Dezadaptatsiya o'smir xulqida qanday namoyon bo'ladi?

O'qishga qiziqishning yo'qolishi;

Tajovuzkorlik, dushmanlik yoki befarqlik;

Tengdoshlar bilan mojarolar;

Ichki iztirob, tushkunlik, depressiv holatlar;

Giyohvandlik, alkohol yoki boshqa zararli odatlarga moyillik.

Psixologik-pedagogik yondashuv

Dezadaptatsiyani bartaraf etishda psixologik suhbatlar, individual yondashuv, o'smirning ehtiyoj va muammolarini tushunish muhim. Pedagog va psixologlar o'rtasidagi hamkorlik, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi faol ishtiroki asosiy omillardan biridir.

Xulosa

O'smirlik — o'zgarishlar va sinovlar davridir. Dezadaptatsiya esa shu davrda yuzaga keladigan eng jiddiy muammolardan biri bo'lib uni erta aniqlash va bartaraf etish shaxsiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir pedagog, psixolog va ota-ona o'smirning ichki holatini to'g'ri ang